

## BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHIDA KORREKSIYON VA KOMPENSATSIYA O'RNI.

Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim fakulteti

Maxsus pedagogika: logopediya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

**Mo'minova Gulbahor Dilshodbek qizi**

**ANNATOTSIYA:** Ushbu tezisda bolalarning psixik rivojlanishida korreksion va kompensatsiya o'rni haqida ma'lumotlar, bola bilan ijtimoiy muloqotga kirish uchun metodlar haqida keng miqyosda yoritib beriladi.

**KALIT SO'ZLAR:** Korreksiya, ijtimoiy muloqot, psixika, metod, nutq.

Hozirgi kunda O'zbekistonda global muommoga aylangan aqliy faoliyatning buzilishi, psixik o'zgarishlar avj olib bormoqda. Barcha davlatlar bu holatni korrektsiya, ya'ni tuzatish uchun maxsus pedagoglar, malakali kadrlar yetishtirib beryapti. Mustaqil yurtimizga barkamol avlod yetishtirib chiqarish uchun ular mas'uliyat bilan yondashishmoqda.

Bolaning rivojlanishi uchun ijtimoiy muloqot, ota-on va o'qituvchilarning metodologik usullari muhim hisoblanadi.

- Korreksiya tushunchasi;

Pedagogik jihatdan korrektsiya yunoncha(correctio)dan olingan bo'lib, tuzatish degan ma'noni bildiradi. Bolaning psixikasi, ruhiyati ni buzilishiga turli omillar ta'sir qiladi. Masalan, irsiyat, turli shikastlanishlar va h.k.

Ruhiyatini zararlanishi natijasida bola o'z qobig'iga o'ralib jamiyatdan ajralib qoladi. Bu holat boshqa organlarga, ya'ni sezgi va analizatorlarga salbiy ta'sir qiladi. Har doim bir analizatorning ishdan chiqishi ikkinchi analizatorga ta'sir ko'rsatmay qo'ymaydi. Bunday salbiy oqibatlar yuzaga kelmasligi uchun turli metodlar orqali korrektsiya qilinishi lozim.

- Kompensatsiya tushunchasi;

Kompensatsiya bu qoplash to'ldirish degan ma'noni bildiradi. Kompensatsiya turli sohalarda: biznez va ta'lim yo'nalishida qo'llaniladi. Bolalar psixikasida buzilishi oqibatida nutq rivojlanishi buzilishi kuzatilishi mumkin. Bir analizatorning o'rnini boshqa analizator bilan qoplash, kompensatsiyalar to'liq holda namoyon bo'ladi. Kompensatsiya bolalarni atrof muhitga adabtatsiya, ya'ni moslashishga yo'l ochadi. Kompensatsiya nafaqat ta'limda, balki tajribali ishchilarni ham ishga olish uchun qo'llaniladi.

- Xulosa;

Bolalardagi aqliy va jismoniy o'zgarishlarni korrektsiya va kompensatsiya qilish, o'rganib ularni o'rnini to'ldirish orqali kasallikni davolash yoki bildirmaydigan holatga olib kelish mumkin. Kompensatsiya aqliy rivojlanishda orqada qolgan, psixik zo'raygan bolalarni hayotga moslashtiradi. Turli xil metodlar, qiziqarli prinsiplar orqali ularni rivojlatiradi.

- **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;**
- Abdullayeva Sh.A(2018)Pedagogik va diagnostika korreksiyalari
- Soliyeva G.U (2020) Korreksion rivojlantiruvchi texnologiyalar.
- Muhammadi Axmedova (2018) Pedagogik komponentlik uslubiy qo'llanma.

# PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

**ANDIJON ,2024**

- Usacheva L. Ubaydullayeva N. Ekspress PSIXOLOGIYA tarbiyachilar uchun.